
FUQAROLAR QABULI – XALQ BILAN OCHIQ MULOQOT

📌 Bugun Xalq qabulxonasida tuman hokimi S. Solievning navbatdagi fuqarolar qabuli o'tkazildi.

* Unda sektor rahbarlari, hokim o'rinbosarlari hamda tumandagi idora va tashkilot rahbarlari ishtirok etishdi.

□ Qabul chog'ida tuman hokimi tomonidan fuqarolarning murojaatlari birma-bir tinglandi. Ochiq va samimiy muloqot tarzida kechgan qabulda turli masalalarga oid 35 dan ziyod murojaatlar ko'rib chiqildi.

* Qabul davomida barcha murojaatlar tegishli tartibda ro'yxatga olinib, yechimi oson bo'lgan murojaatlar joyida hal etildi va ayrim murojaatlar huquqiy maslahat va tushunchalar bilan qoniqtirildi. Muddat talab etiluvchi murojaatlar esa hal etish uchun tegishli mutasaddilarga biriktirilib, nazoratga olindi.

2023-01-26 14:48:53